ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti
FXB ta'lim yonalishi
2-bosqich 1- gurux talabasi
Islomova Xurshidaning

KURS ISHI

MAVZU: " KO'XNA VODIY GAVHARI " FERMER XO'JALIGIDA TEKINXO'R BEGONA O'TLARNI TARQALISHI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORA TADBIRLARI.

REJA:

1. Kirish.

2. Adabiyotlar sharxi.

3. " Ko'xna vodiy gavxari " fermer xo'jaligining tuproq va iqlim sharoitlari.

4. Fermer xo'jaliginig umumiy tasnifi.

5. Asosiy bo'lim.

5.1. Dexqonchilik qonunlari va ekin xosildorligi.

5.2. Fermer xo'jaliklari sharoitida o'simliklarni suv va ozuqa maromlari.

5.3. Xo'jalik tuprog'ining agrofizikaviy xususiyatlari.

5.4. Fermer xo'jaliklarida joriy etilgan almashlab ekish.

5.5. Fermer xo'jalilari dalalarida tarqalgan begona o'tlar va ularga qarshi kurashish.

5.6. Fermer xo'jaliklarida amalga oshiriladigon yerni ishlash tizimlari.

6. Xulosa.

7. Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

O’zbekiston respublikasi prezidenti Islom Karimov tomonidan yaratib berilgan burilish yasadi.

O’zbekiston respublikasi pirizidentining 2003-yil 24-martdagi “Qishloq xo’jaligida islohatlarni chuqurlashtirishning enh muhim yo’nalishlari to’g’risida”gi farmoni qishloq xo’jaligida tarixiy axamyatga ega bo’lib tarmoq rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi.

“Fermer xo’jaliklari qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishni tashkil etishning asosi sifatida faoliyat ko’rsatishlari lozim, chunki iqtosodiy jihatdan erkin bo’lgan fuqaro xaqiqiy mulkdorgina o’z mol-mulkini samarali tasarruf etishdan, o’z boyligini ko’paytirishdan manfaatdor bo’libgina qolmay balki butun mamlakatni boyitishga xam qodir bo’ladi” deb aytgan edi prezidentimiz Islom Karimov o’z chiqishlaridan birida.

Mustaqillikning ilk davridayoq mamlakatimiz prezidenti tomonidan yaratilgan bozor iqtisodiyotiga o’yishning besh tamoyili bu soxada tub burilish yasadi. Qishloq xo’jaligida barqarorlikni taminlashga, shaxsiy tomorqa xo’jaliklarini rivojlantirishga mulkcjilikning turli shakillarini joriy etilgan agrar munosabatlarning yangi turini vujudga keltirgan va ularning qonuniy asoslarini asoslarini yaratishga aloxida etibor qaratilgan.

Qishloq xo’jaligida isloxatlar iqtisodiy o’zgarishlarning eng muhim bo’g’imida deb e’tirof etildi yangi xo’jalik mexanizmi fermer xo’jalikalri tashkil etish va faoliyati yuritishning asosiy qoidalari yaratildi. “Mulkchilik masalasini xal qilish,- dedi prezidentimiz I.Karimov – Bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimning tamal toshi bo’lib xizmat qildi”

Iqtisodiy manfaatdorlikka, foydaga va faoliyatning natijalari uchun moddiy javobgarlikka tayanadihon bu iqtisodiy o’zgarishlarning asosiy mulkchilik xuquqi

tashkil etadi. Isloxatlar o’tkazish jarayonida jamoa xo’jaliklari va davlat xo’jaliklarining faoliyati tanqidiy mahalliy etildi va barcha davlat xamda jamoa qishloq xo’jalik korxonalari birinchi navbatda zarar ko’rib ishlayotgan zo’jaliklarni fermer xi’jaliklariga aylantirish mexanizmi joriy etildi.

Adabiyotlar sharxi

Islom Karimov “O’zbekiston” Nashriyoti (1995) “Qishloq xo’jaligini islox qilish agrar munosabatlarni yangi turini shakllantirish”.

Ushbu kitob agrar sektorni tubdan islox qilishi va jadal rivojlantirishi muammolari isloxotlarning dastlabki bosqichida xamda, O’zbekistonning bozorga o’tishni strategiyasida xal qiluvchi axamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari qishloq xo’jalik maxsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning o’zlarida o’z mulkining xo’jayini xissini mustaxkamlash uchun zarur ishlarning barchasini amalga oshirishdan iboratdir.

G’. Abdurasulov, S. Mamatqulov “tarmoqlar texnologiyasi” ushbu kitobda dexqonchilik chorvachilik kabi tarmoqlar texnologiyasini yoritishga qaratilgan bo’lib tuproq va unumdorligini oshirish, o’simliklarning o’sishi va rivojlanishi, g’o’za, kuzgi bug’doy, turli yem-xashak, sabzavot ekinlarini o’stirish, bog’dorchilik, chorva xayvonlarini boqish, urchitish, ozuqa tayyorlash masalalari borasida mavjud nazariy va amaliy manbaalar xamda tajribalarni umumlashtirib yaxlit to’plam xoliga keltirish maqsadida tayyorlanadi. S. Q. QODIROV, T.S. XUDOYBERSIEV “ Paxtachilik ” g’o’za agrotexnikasi ushbu qo’llanmada paxtachilikda almashlab ekish g’o’za navlari, yerni ekishga tayyorlash va yerga ishlov berish mexanizmlari; g’o’zani o’gitlash, sug’orish, chtkanka qilishga, g’o’za zazrarkunandalari va kasalliklari, paxtani yig’ib terib olishga tayyorgarlik ko’rish va terish texnologiyasini xamda xar bir jarayonni bajarishda qo’llaniladigon mexanizmlar to’g’risida kerakli malumotlar keltirilgan “fermerlik faoliyatining xuquqiy va moliyaviy asoslari ” bu kitob Amerika qo’shma Shtatlari xalqaro rivojlantirish Agentligining o’zbek fermerlariga tuxfasi bo’lib, Markaziy Osiyodagi vakolatxonasining xamkorlik shartnomasi doirasida

tayyorlangan. Unda asosan 4 ta yirik va chuqur yoritilgan bob xamda 11 ta ilovadan tashkil topgan.

“ O’zbekistonda fermer xo’jaligini yuritish asoslari ” O’zFXU – O’zbekiston fermerlar uyushmasiga tegishli bo’lib < Voris > Nashriyotida 2007- yil chop etilgan.

Qo’llanmada fermer xo’jaliklarining tashkiliy – iqtisodiy asoslari bo’yicha amaldagi me’yoriy va xuquqiy xujjatlarning sharxlari, bir qator qishloq xo’jalik ekinlariniyetishtirshning ilg’or texnologiyalari, o’simliklarni ximoya qilish, va suvdan samarali foydalanish bo’yicha yetakchi olimlar, O’zbekoston Reapublikasi Qishloq va suv xo’jaligi vazirligi xamda qishloq xo’jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazi olimlari tomonidan tayyorlangan tavsiyalar, yo’l yo’riqlar xam keng o’rin olgan. Qo’llanma fermer xo’jaliklari raxbarlari, shu soxa bilan qiziquvchilar uchun mo’ljallangan. “ O’zbekistonda fermerlar ekologik va iqtisodiy bilimlarini oshirish ” mavzusidagi seminar – trening Toshkent -2008 ushbu qo’llanma O’zbekiston Respublikasi fermer xo’jaliklari uyushmasida tayyorlangan va seminar treningda ishtirok etgan qatnashchilarga tarqatilgan ushbu qo’llanmada asosan fermer xo’jaligini faoliyat turlari va ushbu soxadagi o’zgarishlar xaqida bayon etilgan.

” Ko’xna vodiy gavxari ” fermer xo’jaligining tuproqlari

Fermer xo’jaligining tuproqlari och tusli bo’z tuproq bo’lib, tarkibida 1-1.5% gacha chirindi bor, chirindili qatlami 10 - 12 sm, bo’lib uning ostidagi 10 – 20 sm li qatlam bir muncha och tusli bo’lib, unga oq dog’ shaklidagi oxaklar, pastki qatlami esa sho’rlangan. Bu tuproqlar suvni yaxshio’tkazadi, biroq tarkibi unchalik yaxshi emas. Tuproq tarkibidagi mikroelementlar Azot 0.08% ni, fosfor 0.13% ni, kaliy 1.8 ni tashkil qiladi. Yer ostki suvlariga to’xtaladigon bo’lsak 2 – 6 metrdan bazi joylaridan esa (fermer xojaligining yerlari 2 ta massiv yani 2 xududga joylashgani uchun) 3 – 7 metr chuqurlikdan chiqadi.

Tuproq o’zi asosan qishloq xo’jaligini birdan bir vositasi ekanligini xisobga olsak. Fermer xo’jaligida yerga ishlov berish birinchi navbatda fermer xo’jaligi tuproqlarini

tuzilishi, fizikaviy, kimyoviy xossalari va tuproqning tarkibi o'zgarishi yani tuproqdagi macro va mikro elementlarini o'zgarishiga sabab bo'la oladi.

" Ko'xna vodiy gavxari " fermer xo'jaligining iqlim sharoiti

Fermer xo'jaligi xududidagi yerlarning iqlim sharoitiga keladigon bo'lsak, bu yerlarda deb gap boshlaydi fermer xo'jaligi raxbari:

Umidaxon Egamova bu yerlarda yillik yog'in miqdori xar xil bo'lad, yani yoz oylari quyoshli kunlarini davomiyligi 15 kunda 10 soatdan kam bo'lmaydi.

Yoz oylarida iqlim nisbatan turg'un bo'lsa, qish oylarida tez o'zgaruvchandir.

Bu yerlarda shunga yillik tajriba va ko'nikmalarimdan kelib chiqib issiqlik darajasi maksimal 47 gradusni sovuqlik darajasi esa -10 -15 gradus darajasini kuzatganman. Xavosi quruq mo'tadil, biron, dovullar bo'lmaydi. Sizot suvlari asosan 6 metr chuqurlikda, chirindi 0.1 – 0.3% PH – 7.1 jami og'irligi 1.22 – 1.24 2/sm kvadrat ni tashkil etadi.

Yozi issiq, iyundagi o'rtacha xarorati +35 gradus +39 gradusni tashkil etadi. Issiqlik kunlari 217 kundan iborat deb o'z so'zini tugatar ekan fermer xo'jaligi raxbari.

" Ko'xna vodiy gavxari " fermer xo'jaligining umumiy tasnifi.

"Ko'xna vodiy gavxari" fermer xo'jaligi Andijon viloyati Oltinko'l tumani "Namuna" hamda "Turkiston" massiflarida joylashgan.

Fermer xo'jaligi 2007-yili o'z faoliyatini boshlagan bo'lib u asosan paxta-g'alla yo'nalishidagi fermer xo'jaligi bo'lib faoliyat olib bormoqda.

Fermer xo'jaligining umumiy yer maydoni **267** - gektarni tashkil etadi. Fermer xo'jaligi bugunga kelib chorvachilik va parrandachilik sohasida ham yangdan yangi yutuqlarga erishib kelmoqda hozirgi kunda fermer xo'jaligi qaramog'ida 30 dan ortiq

qoramollar, 20 dan ortiq qo’ylar bor. Parrandachilikda esa 200 ga yaqin chet eldan keltirilgan “Broller” nomli tovuq zotlari parvarish qilinmoqda.

Fermer xo’jaligini chorvachilik va parrandachilik yo’nalishlari bo’yicha boshlagan faoliyatida ko’pincha 7 nafar yoshlar ish o’rinlariga ega bo’ldi.

Fermer xo’jaligining texnika bazasiga keladigan bo’lsak fermer xo’jaligida hozirgi kunga kelib

1. Xaydov traktori – 1 ta

2. Kultuvator TTZ-80 – 2 ta (60 li)

3. Kultuvator MTZ-80 – 2 ta (90 li)

4. Transportniy TTZ 8010 – 2 ta

5. Prisep – 6 ta

6. Omoch – 1 ta

7. Chizel – 2 ta

8. Yer tekkislagich (Dilinabaza) – 1 ta

9. Barama – 2 ta

10. Agat olish moslamasi – 4 ta (60 li va 90 li)

11. Chigit ekish moslamalari – 3 ta (60 li va 90 li)

12. O’simlikka kimyoviy ishlov berish – 2 ta moslamasi (OVX – ODN)

13. O’qariq olish moslamasi - 1 ta

14. Bug’doy ekish sielkasi – 2 ta

15. O’tni ya’ni beda va yem-xashakni yig’ishtirib oluvchi moslama – 1 ta (Kir paltara).

Fermer xo’jaligini 70 dan ortiq ishchilari mavjud bo’lib hamma ishlar axil va inoqlikda va hamjihatlikda siz biz bilan bizni dasturxonimiz to’kin-sochin bo’lishi va mamlakatimiz ravnaqi yo’lida javlon urib ter to’kmoqdalar.

„Ko’xna vodiy gavhari” fermer xo’jaligi yer maydonining tuzlishi

№	KO’RSATKICHLAR	MAYDONI (GEK)
1	Umumiy yer maydoni	267 gektar
2	Shundan haydaladigan yer maydoni	133 gektar
3	Tomorqalar	0.30
4	Tut qator o’rni, dala yo’llari, suv va ariq zovurlar o’rni	0,08

„Ko’xna vodiy gavhari” fermer xo’jaligining ekin turlari

№	EKIN TURLARI	MAYDONI
1	Paxta	129.9 gektar
2	G’alla	133 gektar
3	Yem-xashak ekinlari	
4	Takroriy ekinlar	1.2 gektar
5	Boshqa ekinlar	1.4 gektar

Tekinxo’r begona o’tlar

Tekinxo’r begona o’tlarning yashil barglari bo’lmaydi, binobarin, xavodagi karbonat angidrid gazini o’zi mustaqil o’zlashtira olmaydi. Ekin hamda yovvoyi o’simliklar to’qimasiga kirib olib ularni shirasi bilan oziqlanadi. Bu hil begona o’tlar yashil o’simliklarning poyasi, bargi va ildizlarining shirasini so’rib oladi va o’sadi.

Bunday tekinxo’r begona o’tlarga quyidagilar kiradi.

Zarpechak yoki dev pechak hamma ekinlardan tashqari buta va daraxt jumladan mevali daraxtlarni zararlaydi. Zarpechak urug'idan boshqa o'simlikka tushgan pechak parchasi 2-3 kundan so'ng o'saveradi. Urug'I unib chiqib qobiliyatini 15 yilgacha yo'qotmaydi.

Shumg'iya – bu ekin ildizi shirasini so'rib rivojlanadi, urug'idan ko'payadi. Ularning bir turi 150 ming donacgacha urug' berishi mumkin.

Shumg'iya – pomidor, baqlajon, kartoshka, tamaki, poliz ekinlari, kungaboqar, shuningdek qo'ytikan, qora ituzum kabi bazi begona o't ildizlariga tushadi. Shumg'iyaning poyasi shohlab o'sadi, guli yirik 2-3 sm. Gultojibargi oqish binafsha rang bo'ladi. Urug'ining unib chiqishi qobiliyati 10 yilgacha saqlanadi.

Begona o'tlarni oldini olish bilan bog'liq bo'lgan agrotexnika tadbirlariga to'g'ri almashlab ekishni joriy qilish, rivojlantirish siqllari turlicha bo'lgan ekinlarni almashlab ekish kiradi.

Bu tadbirlar amalgam oshirilganda ayrim turli ekinlarga moslashib qolgan begona o'tlar uchun noqulay sharoit vujudga keladi. Ekinlarning yaxshi o'sishi ham begona o'tlarni zaiflashtiradi va bora-bora yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Shamak – bo'yi 80 sm ga yetadigan, sershox bo'lib, tik o'sadi. Tariq ekiniga o'xshab ketadi, tuksiz poyali, guldastasi g'uj rovak ko'rinishida. Doni yaltiroq, sarg'ish, tustga va tuxumsimon shaklida. Agar sholipoyaga suv qatlami 15 – 20 sm qalinlikda tursa kurmak, shamak kabi begona o'tlar yo'qolib ketadi.

Kakra – bo'yi 60 sm ga yetadi, sershox, tuk bilan qoplangan bargi g'adir-budir, bandi bo'lmaydi. To'pgulli bo'lib, novda o'tlariga yakka-yakka joylashadi. Guli pushti rangda, urug'i oq tusda, tuxumsimon bo'ladi. O'q ildizi yerga 5 – 6 metr chuqurlikkacha o'sib kiradi. Yerning 20–25 sm chuqur qismiga joylashgan yon ildizlaridan bachki novdalari o'sib chiqadi. Bu o't hamma joyda uchraydi. Karantin o'simlik hisoblanib, har qanday yo'l bilan yo'q qilinadi.

Qo’y pechak – poyasi uzun bo’lib, boshqa o’simliklarga chirmashib o’sadi. Bargi yuraksimon ko’rinishda bo’ladi. Guli yirik, pushti rangda, karnay gulag o’xshab yakka joylashadi. Mevasi va chanog’i dumaloq shaklda va qo’ng’ir tusda bo’ladi. Juda tez o’sadi, yo’qotish uchun tez-tez o’toq qilinishi kerak.

Davr pechak va zarpechaklar oqish, sarg’ish, qizg’ish va qizil tusdagi uzun ipsimon poyadan iborat bo’ladi. Bular tez o’sadi, yonidagi o’simlikka chirmashib oladi. Natijada pechak chirmashib olgan o’simlik nimjon bo’lib qurib qoladi.

Dexqonchilikning qonunlari va tanlangan fermer xo’jaligidagi ekinlar xosildorligi.

Dexqonchilikning o’z qonunlari bor. Ular 5 ta:

1. O’simlik xayot omillarining teng qimmatliligi va almashlab bo’lmasligi, yani issiqlik, suv, yorug’lik, ozuqa va boshqa omillarni almashtirib bo’lmaydi.
2. Chegaralovchi omil qonuni. Bu qonun xosildorlik darajasining minimum miqdoridagi omilni belgilab beradi.
3. Optimum qonuni. Suv va ozuqalar o’simlikning rivojlanishini taminlaydi.
4. Qaytarib berish qonuni. O’simlik tuproqdagi moddalarni o’zlashtiradi, buni qaytarib tuproqqa solish kerak.
5. Ekinlar o’rnini va vaqtini almashtirish qonuni, yani boshqa sharoitlar bir xil bo’lganda ekinni o’z o’rniga takror ekavergandan ko’ra nisbatan yuqori hosil olinishidir.

“Ko’xna vodiy gavhari” fermer xo’jaligida ekinlardan olingan o’rtacha hosildorlik 2008-2011

№	Ekin turi	Rejada	Xaqiqatda	Farqi
1	Paxta	32.7 s	38.7 s	6 s
2	Bug’doy	40 s	70 s	30 s
3	Boshqa ekinlar			

Fermer xo’jaligi sharoitida o’simliklarni suv va ozuqa maromi

Zamonaviy ilm fan suvning fizikaviy xususiyatlari va vadarot xamda kialorodning atomlari o’rtasidagi qisqa birikmaviy vodorot aloqalari suv malekulalarida aloxida assotsiat tarkiblar (klasterlar) ning xosil bo’lishiga qulay sharoitlar yaratilishini tasdiqlaydi.Bu klasterlar turli axborotlarni qabul qilish, saqlash va taqdim etish xususiyatiga ega.

Muntazam tarkiblarga ega bo’lgan suv to’g’risidagi tushunchalarga ko’ra undagi vodorot bog’lamlari doimiy ravishda hosil bo’ladi va parchalanadi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, mazkur jarayonlar „Miltillab turuvchi klasterlar” deb nomlangan qisqa muddat hayot kechiruvchi suv molekulalari guruhlari doirasidagi kooperativ tarzda kechadi.

Ularning hayoti 10-10 dan 10-12 darajasidagi diyapazonda kechadi. Bundagi tasavvur suyuq suvning yuqori darajasidagi harakatlanishini va o’ta past darajadagi kirishuvchanligini izohlaydi. Shunday xususiyatlari suvning har bir molekulasi

muzning kristall tarkibida tetraedrning cho’qqisiga yo’naltirilgan 4 ta vodorot aloqasida ishtirok etadi. Mazkur tetraedrning markazida kislorod atomi joylashgan, ikki cho’qqisida esa 1 tadan vodorot atomi bor. Vodorot atomlarining elektronlari kislorod bilan kovalent aloqani o’rnatishda ishtirok etadi.

Suvga ishlov berish to’g’risidagi ilmiy g’oyalar 30 yildan buyon buyuk tatqiq etiladi, 70-yillarda V.I.Klassen va uning izdoshlari tatqiqotlari tufayli magnitlashgan suvdan foydalanishda ijobiy natijalar olingan. Ko’plab Rossiyalik tatqiqotchilarning izlanishlari yordamida suvga magnit maydoni orqali ta’sir o’tkazish kompleks va ko’p omilli xususiyat kasb etib, oxir-oqibatda suvning tarkibi kimyoviy, fizikaviy xususiyatlarining o’zgarishiga olib kelishi aniqlandi. Magnet maydoni ta’siri ostida suvdagi kimyoviy reaksiyalar, eritilgan moddalar kristallanishi tezligi oshadi, adsorbtsiya jarayoni jadallashadi, kalgalatsiya yaxshilanadi.

Tuproqlarning agrofizikaviy xususiyatlari.

Dala tuproqlarining agrofizik xossalari dehqonchilik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tuproqdagi fizik xossalar tuproqda kechadigan kimyoviy va biokimyoviy jarayonlarni tezlashtiradi. Tuproqdagi organik va mineral moddalar miqdoriga qarab, tuproqning fizik xossalari o’zgarib turadi.

Tuproq g’ovakligi – tuproqning g’ovakligi deb tuproq zarrachalari orasidagi bo’shliqlarning umumiy hajmi yig’indisiga aytiladi va u foiz bilan ifoda etiladi. G’ovaklilik tuproq tarkibidagi mineral moddalarga va chirindilarga hamda tuproqning donadorligiga bog’liq bo’ladi. Asosan tuproqning haydalma qatlamida chirindi ko’p bo’ladi. Demak, tuproqning haydalma qatlamida g’ovaklilik 55-70 foizgacha bo’lsa pastki chirindisi kam bo’lgan qatlamda g’ovaklilik darajasi 34-35 foiz atrofida bo’ladi.

„Ko’hna vodiy gavhari” fermer xo’jaligida almashlab ekish.

Sug’oriladigan paxtachilik zonalarida almashlab ekish dehqonchilikning ya’ni tuproq unumdorligini tiklashgagina emas, balki yaxshilashning, agrotexnika va

miliratsiya tadbirlari samaradorligini oshirishning pirovad oqibatda esa paxta, don va sug’oriladigan yerlardagi boshqa qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko’paytirishning eng muhim omili bo’lib qoldi. Almashlab ekish deb ekinlarni dalalar va yillar bo’yicha navbatlanishiga aytiladi.

Bir yillik o’simliklar bir joyga ekilaversa, tuproqning kuchi ketib uning fizik xossalari yomonlashadi va dalani begona o’tlar bosib ketadi. Tuproq unumdorligi pasayadi va hosil yildan-yilga kamayadi. Tuproq sho’rlashadi, o’simlik ko’p kasallikka uchraydi, zararkunandalar hosilga putur yetkazadi. Almashlab ekishni joriy qilish tuproq unumdorligini oshoradi va begona o’tlarga, o’simliklarga tushadigan zararli hashoratlarga hamda kasalliklarga qarshi kurash tadbirlarining yanada yaxshiroq natija berishga sabab bo’ladi.

G’o’za bilan almashlab ekiladigan yerlar:

Paxtachilikda asosan g’o’za, beda, sebarga, makkajo’hori, oqjo’xori va boshqa dukkakli-donli, yem-xashak o’simliklari bilan almashlab ekiladi.

Almashlab ekish tarkibiga kiradigan yo’ldosh ekinlar orasida beda o’simligi eng yaxshi foydali hisoblanadi. Beda biologik xususiyatlari jihatidan g’o’za uchun eng yaxshi o’tmishdosh ekindir. Kuzatishlardan ma’lumki, almshlab ekish maydonidagi 3 yillik beda yuqori agrotexnika sharoitida o’stirilganda, har gektar yerning haydalma qatlamida 10-12 tonna ildiz mahsulotini to’playdi va tuproqni organik moddalar bilan boyitadi. Uning natijasida beda ildizidan tuproqda 3-4 tonna gumus hosil bo’ladi.

Xo’jalik dalalarida tarqalgan begona o’tlar va ularga qarshi kurash choralari.

Begona o’tlar tuproqdagi ozuqa moddalari va namlikni o’zlashtirib, ekinlarning normal oziqlanishiga imkon bermay hosildorlikni keskin kamaytirib yuboradi va kombainlar ishiga qiyinchilik tug’diradi.

Begona o’tlarga qarshi kurashda agrotexnik tadbirlar (ya’ni 2 yarusli plug bilan chuqur haydatgan, maqbul muddatlarda ekish, to’liq ko’chat olish, o’g’itlash va

boshqalar) muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga kimyoviy pereparatlarni qo'llash ham maqsadga muvofiqdir.

Begona o'tlarga qarshi kurashda hozirgi kunda 75 foiz gaistar gerbitsitidan gektariga 15-20 gramm, 48 foizli bazagrap va pardner gerbitsitidan gektariga 1,5-2,0 kilogramm me'yorida qo'llash yuqori samara beradi. Bu kimyoviy pereparatlar erta ko'klamda boshoqli don ekinlariga begona o'tlar rivojlanishi bilan yer ustki agregatlari yordamida sepiladi.

Boshoqli don ekinlariga asosan bug'doy tripisi va shiralar zarar shilimshiq qurt (piyavitsa)lar kuchli zarar keltiradi.

Begona o'tlarning urug'larini ildiz poyalarini va o'simligining o'zini yo'qotishga qaratilgan. Quyidagilar shunday tadbirlar jumlasiga kiradi.

1. Mexanik usulda yo'qotish.

a) yerni yuza xaydam va shudgor qilish.

b) yerni ekish oldidan ishlash.

v) chopiq qilinadigon ekin qator oralarini ishlash (kultivatsiya) o'toq qilish va boshqalar.

g) mulg'alash.

2. termik usulda yo'qotish:

a) begona o'tlarni kuydirib yuborish.

b) Ildizpoyalarni qishda muzlashi.

3. Ximiyaviy vositalar bilan yo'qotish. Mexanik usulda yo'qotish. Bunda yer yuza xaydalganda begona o'tlar yo'qoladi, to'kilgan urug'lari esa bir oz vaqt o'tkach shudgorlanadi. Yerni yuza xaydash bilan shudgorlash bir-biriga bog'lab olib borilganda begona o'tlar va urug'dan chiqqan nihollar ko'proq yo'qoladi. Begona

o’tlarni yo’qotishdagi asosiy tadbirlar ekinlar ekish oldidan amalgam oshiriladi. Ekishdan keyinesa ular faqat chopiq qolinadigon ekinlarni kultuvatsiya qilish bilan yo’qotiladi.

G’alla ekinlari ko’karib chiqqan paydan boshlab to boshoqlagunchao’toq qilinadi.

Begona o’t urug’larining unib chiqishga yo’l qo’ymaslik uchun qog’oz mulgadan foydalanish ishlab chiqarishda ko’pdan beri qo’llanib kelinmoqda.

Termik usulda yo’qotish. Xozirgi paytda bedapoyadagi zarpechak manbaalarini kuydirish kamdan kam xolda amalgam oshirilmoqda.

Tajriba stansiyalariga g’o’za qator oralaridagi begona o’tlarni kuydishning yangi usullarini sinab ko’rilmoqda, bunda alanga chiqarib ishlaydigon cultivator ishlatilmoqda. Bu agrigat chopiq traktoriga o’rnatiladi.

O’tlarni termik usulda yo’qotish xali keng qo’llanilgani yo’q. Begona o’tlarni kimyoviy vositalari bilan yo’qotish.

Fermer xo’jaligida amalgam oshirish yerni ishlash tizimlari.

Xo’jalik tuproqlariga ekishdan avval ishlov berishdan maqsad kuzgi shudgordan keyin jamlangan foydali xususiyatlarni iloji boricha saqlab qolishdir. Zaxira suv berilgan yoki sho’ri yuvilgan yerlarda yog’ingarchilikdan so’ng xaydov qatlamini muzlashi, erishi va tabiiy chiqishi tufayli tuproq yumshoq bo’lib, qulay nam-fizik xususiyatlar paydo bo;ladi. Ekishdan avval ishlov berishni xar bir mintaqa sharoitini xisobga olib o’tkazishkerakki, tuproq mumkin qadar kamroq zichlashib, yuqori xosil olish imkonini beradi suv fizik xususiyatlarga ega bo’ladi.

Kuzgi shudgordan keyingi ishlov berish ikki tabaqali: Erta baxorda va ekishdan oldin ishlov berishdan iborat. Erta ko’klamgi boramalash nam saqlash, paykalga ishlov berishni yaxshilash, unayotgan begona o’tlarni yo’qotish, dala yuzasini tekkislash uchun tuproq obi-tobida kelganda

8-10 sm chuqurlikda o’tkazadi.

Bu paytda tirmalash muddatlar tuproq iqlim sharoitlariga bog'liq. Zaxira suvi berilgan va ayniqsa sho'ri yuvilgan yerlarda tuproq zichlashganligi tufayli paykalda traktor yurishini kamaytirish uchun chizellash yoki mola ulab o'tkazish tavsiya etiladi erta bahorgi ishlarni bajarishda keng qamrovli ulagichlarga ega bo'lgan zanjirli traktorlar ishlatiladi.

Ekishdan avval ishlov berish.

Bu yil ekinlardan yuqori xosil olish uchun ekishdan oldin tuproqqa ishlov berishni joylarning iqlim sharoitiga qarab tabaqalashtirib o'tkazish lozim. Bunda sho'rlanmagan va begona o'tlardan nisbatan toza bo'lgan dalalar tirmalash bilan birga mnolalanadi: o'rtacha o't bosgan paykallarda

6-8 sm chuqurlikda kultuvatsiya yoki 10-12 sm chuqurlikda yassi kesuvchi ishchi qismlar bilan chizellash tirma yoki mola bilan birga o'tkaziladi; ko'proq o't bosgan maydonlarda istisno sifatida 16-18 sm chuqurlikda ag'darmasdan xaydov o'tkazib, tirmalanadi va molalanadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkink, dalalarni tekinxo'r begona o'tlardan tozalashda agrotexnik va kimyoviy chora tadbirlarni birga qo'shib olib boorish dexqonchilik madaniyatini yuksalishida, ekinlar xosildorligini oshirishda va uning sifatini yaxshilashda eng katta rezerf xisoblanadi. Begona o'tlarga xozirgi kunda dalalarda turli xil usullar bilan kurash olib borilmoqda.

Mening fikrimcha begona o'tlarga qarshi kurashda barcha kurash choralarini o'z vaqtida qo'llash joiz bo'lsa barcha choralarni birdaniga qo'llashda begona o'tlardan batamom qutilish mumkin deb o'ylayman.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytganda tekinxo'r begona o'tlarni yo'qotish g'oyat mashaqqatli ish.

Umuman tekinxo’r begona o’tlarga qarshi kurash samaradorliligini oshirish uchun oldini olish, agrotexnik biologic va kimyoviy kurash choralarini birga qo’llash lozim.

Xulosa qilib aytadigon bo’lsak Respublikamiz xududida 72 oilaga mansub 841 tur begona o’tlar mavjud bo’lib shundan 519 turi bir yillik, 322 turi ko’p yillik begona o’tlar mavjud.

Biz ushbu begona o’tlarni o’z dalalarimizdan yo’q qilish xisobiga xosildorlikni 10-15 sentinerga oshirishimiz xamda qishloq xo’jaligi ekinlarini turli xil kasalliklar va zararkunanda xashorotlardan asrab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

ro’yxati

1. I. Karimov “O’zbekiston” nashriyoti 1995- yil Toshkent. “Qishloq xo’jaligini isloh qilish” agrar munosabatlarning yangi turini shakllantirish.

2. G’. Abdurasulov, S. Mamatqulov “Iqtisod moliya” nashriyoti Toshkent 2007- yil “Tarmoqlar texnologiyasi”.

3. S. Q. Qodirov, T.S. Xudoyberdiev “Xayot” nashriyoti Andijon 2001-yil “Paxtachilik g’o’za agrotexnikasi”.

4. O. Olimjonov, T. Farmonov “Universitet” Toshkent-2005 Fermerlik faoliyatining xuquqiy va moliyaviy asoslari.

5. O’zFXU (O’zbekiston fermerlar uyushmasi) ga tegishli “Voris-nashriyot” Toshkent-2007 “O’zbekistonda fermer xo’jaliklarining yuritish asoslari”.

6. O’z FXU (O’zbekistonda fermerlar uyushmasiga tegishli Toshkent 2008) “O’zbekistonda fermerlar ekologik va iqtisodiy bilimlarini oshirish” mavzusidagi seminar-trening.